

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON  
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>Г.Х.Собирова</b>	
Флавоноиды и их антидиабетические эффекты: клеточные механизмы .....	542
<b>М.А.Тoshtemirova</b>	
Bakteriya hujayrasi qo'shilmalari va kapsulalari .....	546
<b>М.А.Тoshtemirova</b>	
O'simliklardan tabiiy dori preparatlar olish .....	549
<b>М.А.Тoshtemirova</b>	
Tayoqchasimon va sharsimon bakteriyalar va spiroxetalar, ularning morfologiyasi .....	552
<b>F.R.To'xtasinov</b>	
Bodring ekini nematodalarining mavsumiy dinamikasi (Oltiariq tumani misolida) .....	556
<b>F.R.To'xtasinov</b>	
Pomidor rivojlanish davrlarida fitonematodalarning turlar tarkibi va miqdor dinamikasi.....	562
<b>F.R.To'xtasinov</b>	
Kartoshka o'simligida uchrovchi fitonematodalarning turlar xilma-xilligi va ekologik-trofik guruxlari .....	566
<b>Sh.Q.Yuldasheva, D.X.Mo'ydinova</b>	
Ninachilarni tabiatda tarqalishi va unga ta'sir etuvchi omillar .....	570
<b>Sh.Q.Yuldasheva, M.I.Teshaboyeva</b>	
Farg'ona vodiysi nok bog'lari hosildorligiga nok shirinchasining ta'siri .....	573
<b>Sh.Q.Yuldasheva, S.Nosirova</b>	
Anjirning asosiy zararkunandalarini tur tarkibi va ularga qarshi uyg'unlashgan kurashish tizimining afzalliklari .....	577
<b>Sh.Q.Yuldasheva</b>	
<i>Panaphis juglandis</i> shirasining morfologik belgilari variatsiya ko'rsakichlarini o'ziga xosligi.....	581
<b>A.A.Yoqubov</b>	
Kuzgi tunlam ( <i>Agrotis segetum</i> (Denis & Schiffermüller) 1775) lichinkalari rivojlanishiga tuproq namligining ta'siri .....	586
<b>K.X.G'aniyev</b>	
<i>Aphis pomi</i> va <i>Aphis punicae</i> shiralarining biologik xususiyatlari (Sirdaryo viloyati misolida).....	590
<b>O.I.Qayumova</b>	
<i>Hyles euphorbiae</i> (Linnaeus, 1758) ning (Lepidoptera, Sphingidae) morfologik tavsifi .....	594
<b>O.I.Qayumova</b>	
Janubiy Farg'onaning Sphingidae oilasi kapalaklari ozuqa ixtisosligi.....	599
<b>T.E.Xomidova</b>	
Ko'krak saratonining biologik markerlari.....	604
<b>T.E.Xomidova, S.Isroiljonov</b>	
Ko'krak bezi saraton oldi holatlarining skrining muammolari (Farg'ona viloyati misolida).....	608
<b>A.M.Turgunova, Ch.Sh.Abduraxhorova, B.M.Sheraliyev</b>	
Katta Farg'ona kanali va chodaksoyda tarqalgan Kushakevich yalangbalig'ning morfologik xususiyatlari.....	612
<b>D.B.Fayziyeva, S.K.Allayarov</b>	
Amudaryo havzasi endemigi <i>Oxynoemacheilus oxianus</i> (Kessler, 1877) (Teleostei: Nemacheilidae) ning morfologik tahlili.....	616
<b>I.I.Zokirov, M.A.Axmadjonova</b>	
Uzunburun qo'ng'izlar (Coleoptera: Curculionidae)ning tarqalishi va ozuqa spektriga oid yangi ma'lumotlar.....	621
<b>G.M.Zokirova, M.Sh.Ro'ziboyev</b>	
Farg'ona vodiysida qayd etilgan ko'l baqasi ( <i>Pelophylax ridibundus</i> ) va yashil qurbaqaning ( <i>Bufo peszewi</i> ) tur tavsifi .....	627
<b>G.M.Zokirova, Z.A.Ibrohimova</b>	
Koksinellid qo'ng'izlari (Coleoptera: Coccinellidae) vakillarining trofik munosabati .....	632
<b>G.M.Zokirova, N.A.Xomidova</b>	
Oltinko'z (Chrysopidae: Chrysoperla) entomofagini ko'paytirish biologiyasi.....	636
<b>G.M.Zokirova, M.A.Masodiqova, I.B.Hoshimova</b>	
Erebidae (Insecta: Lepidoptera) oilasi faunasiga doir yangi ma'lumotlar .....	640
<b>G.M.Zokirova, A.Q.Saidjamolov</b>	
Markaziy Farg'ona hududining ayrim shiralariga (Hemiptera: Aphididae) doir ma'lumotlar .....	643



UO'K: 595.786

**EREBIDAE (INSECTA: LEPIDOPTERA) OILASI FAUNASIGA DOIR YANGI MA'LUMOTLAR****НОВЫЕ ДАННЫЕ О ФАУНЕ СЕМЕЙСТВА EREBIDAE (INSECTA: LEPIDOPTERA)****NEW DATA ON THE FAUNA OF THE FAMILY EREBIDAE (INSECTA: LEPIDOPTERA)****Zokirova Gulnora Mamadjonovna<sup>1</sup>**<sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti b.f.f.d. (PhD)**Masodiqova Mohidabonu Abduvohidjon qizi<sup>2</sup>**<sup>2</sup>Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi**Hoshimova I.B<sup>3</sup>**<sup>3</sup>Farg'ona davlat universiteti talabasi**Annotatsiya**

*Erebidae – tangachaqanotlilar turkumining eng yirik oilasidan biri sanaladi. Oila 24 mingdan ortiq turni o'z ichiga oladi. Bu oila vakillari tunlamsimon kapalaklar bo'lib, 2005-yilgacha u Noctuidae oilasiga kiritilib kelingan. Molekulyar genetik va filogenetik tadqiqotlar asosida bu oila alohida taksonomik birlik – oila sifatida ajratildi. Tunlamsimon kapalaklar nafaqat qishloq xo'jalik ekinlari, balki tabiiy senozlardagi o'simliklarni ham jiddiy zararkunandasi hisoblanadi. Kapalakning lichinkalari o'simlik vegetatsiya va hosildorligiga jiddiy zarar keltiradi. Tadqiqotlarimizda ushbu kapalaklar faunasi tarqalishi, taksonomiyasi va ba'zi bioekologik xususiyatlari o'rganildi. Farg'ona vodiysida hududida Erebidae oilasining 2 kenja oila, 4 avlodga mansub 9 tur qayd etildi.*

**Аннотация**

*Erebidae считается одним из крупнейших семейств отряда саговниковых. Семейство включает более 24 тысяч видов. Представители этого семейства — ночные бабочки, и до 2005 года оно входило в семейство Noctuidae. На основании молекулярно-генетических и филогенетических исследований это семейство было выделено в отдельную таксономическую единицу – семейство. Бабочки являются серьезным вредителем не только сельскохозяйственных культур, но и растений природных экосистем. Личинки бабочек наносят серьезный ущерб растительности и продуктивности растений. В наших исследованиях были изучены распространение, систематика и некоторые биоэкологические особенности фауны бабочек. В Ферганской долине зарегистрировано 9 видов, принадлежащих к 2 подсемействам и 4 родам семейства Erebidae.*

**Abstarct**

*Erebidae is considered one of the largest families of the order of cycads. The family includes more than 24 thousand species. Representatives of this family are nocturnal butterflies, and until 2005 it was included in the Noctuidae family. Based on molecular genetic and phylogenetic studies, this family was separated as a separate taxonomic unit - family. Butterflies are a serious pest not only of agricultural crops, but also of plants in natural ecosystems. Butterfly larvae cause serious damage to plant vegetation and productivity. In our research, the distribution, taxonomy and some bioecological features of this butterfly fauna were studied. 9 species belonging to 2 subfamilies and 4 genera of the Erebidae family were recorded in Fergana Valley.*

**Kalit so'zlar:** *Erebidae, Noctuidae, lichinka, imago, Dysgoniya Hubner, Dysgonia algira, Arctiinae***Ключевые слова:** *Erebidae, Noctuidae, личинка, имаго, Dysgonia Hubner, Dysgonia algira, Arctiinae***Key words:** *Erebidae, Noctuidae, larva, imago, Dysgonia Hubner, Dysgonia algira, Arctiinae***KIRISH**

Tangachaqanotlilar (Lepidoptera) hasharotlarning turlarga boy turkumlardan biri sanaladi. Fanga ularning 128 oila 4200 avlodga mansub 180 000 turi ro'yxatga olingan [6]. Erebidae oila turlari soni bo'yicha tangachaqanotlilarning eng katta oilalari qatoriga kiradi va ko'plab kenja oilalarni o'z ichiga oladi. Farg'ona vodiysining tunlamsimon kapalaklari faunasi to'liq o'rganilmagan bo'lib, ularning o'rganilishi ayrim agrosenozlar entomofunasini tadqiq etish borasidagi ilmiy

## BIOLOGIYA

izlanishlar tarkibida, asosan, muhim zararkunanda turlar misolida olib borilgan [1, 2, 5, 6]. Vodiy sharoitida agrosenozlarda g'oz va kuzgi tunlamlarga entomofaglar bilan biologik kurash tadbirlari yoritib berilgan [3].

**TADQIQOT USLUBLARI**

Tadqiqotimizga Farg'ona vodiysidagi viloyat, tumanlardan va dam olish oromgohlari, turli tabiiy va antropogen senozlardan 2023-2024 yillar davomida yig'ilgan materiallar, olib borilgan tadqiqot va kuzatishlar natijalari asos bo'ldi. Materiallar 2023-yilning kuz oyidan 2024-yilning iyun oyiga qadar, ma'lum qismi esa qish oylarida ham yig'ildi.

Tadqiqotlarimiz davomida Farg'ona vodiysining viloyat, tumanlari hududlari dala ekin maydonlari, xiyobonlari, bog'lari, sihatgohlari va shoh ko'chalarida daraxt va butalar, gullardan kapalak namunalari olindi. Tunlamlarni hisobga olish har 4-7 kunda bir martadan, ma'lum ketma-ketlikda olib borildi. Kuzatishlar davomida tunlamsimon kapalaklarning tarqalishi, yashash tarzi, faunasi o'simliklarga zarar yetkazishi va turli ekologik sharoitlarga moslanish xususiyatlariga alohida e'tibor berildi. Tunlam lichinkalarining zarar yetkazish darajasi daraxt va butalarda yuz bergan o'zgarishlar (gallarning hosil bo'lishi, barglarning bujmaloqlanishi, rangning o'zgarishi, novdalar shaklining o'zgarishi, qurib qolishi yoki to'kilishi, mevalarning voyaga yetmay qolishi yoki to'kilishi va boshqalar) asosida hisobga olinib, tahlil etildi.

Tangachaqanotlilarni taksonomiyasiga oid manbalarni ifodalashda I. A. Maxov [3] taklif etgan uslublardan foydalanildi. Lichinkalari va g'umbaklarini turli hududlardan yig'ishda V.N.Stark [7] uslubi asosida amalga oshirildi. Laboratoriya sharoitida Erebidae kapalaklari ajratib olinib ulardan kolleksiyalar tayyorlandi. Erebidae lichinkalari va g'umbaklarini turli hududlardan yig'ishlik Fasullati uslubi asosida amalga oshirildi.

**OLINGAN NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI**

Farg'ona vodiysi hududi bo'ylab o'tkazilgan kuzatuv-tadqiqot ishlari hudud Erebidae oilasi faunasining holati, tur tarkibi haqidagi dastlabki ma'lumotlarni olish imkonini berdi. Yig'ilgan va o'rganilgan namunalar natijasida ushbu oilaga mansub 2 kenja oila, 4 avlodga mansub 9 tur qayd etildi va ularning sistematik o'rnini aniqlagich aniqlandi va 100 ga yaqin individlar morfometrik tahlil uchun tutilib, kolleksiyalar tayyorlandi.

Tunlamsimon kapalaklar faunasi o'rganish jarayonida hududlar kesimida kuzatuvlar olib borildi va tadqiqot kundaligi tayyorlandi.

Tadqiqot kundaligini yuritishda hududlardagi tunlamsimon kapalaklarning barchasi ham namuna uchun tutilmay, balki soni qayd etildi va ba'zilar tutildi.

**Tadqiqot kundaligi (Ro'yxatga olindi/tutildi)****1-jadval**

2023-yil sentabr-oktabr oylari	<i>Dysgonia algira</i>	<i>Dysgonia rogenhoferi</i>	<i>Dysgonia torrida</i>	<i>Grammodes stolidi</i>	<i>Grammodes stolidi</i>	<i>Phragmatobia fuliginosa</i>	<i>Utetheisa pulchella</i>	<i>Euproctis chrysorrhoea</i>	<i>Euproctis kargalika</i>
17.09.2023 Yozyovon tabiat yodgorligi	—	—	—	1/0	1/0	1/0	2/2	1/1	—
24.09.2023 Qo'shtepa	—	1/1	—	—	—	—	—	—	—
08.10.2023 Yangiobod	—	—	—	—	—	1/1	1/1	—	—
15.10.2023 Chimyon	1/0	—	—	—	1/1	—	2/1	—	—
22.10.2023 Oqbilol	—	—	1/1	—	—	1/1	—	1/1	—
26.10.2023 Istiqlol M.F.Y	—	—	—	—	—	—	—	—	2/
29.10.2023 Vodil	—	—	—	—	1/1	—	2/1	1/1	—

Olingan bu ma'lumotlar nisbiy bo'lib, hudud areali to'liq o'rganilgach va tunlamsimon kapalaklarning atroflicha kuzatuv natijalaridan so'nggina hududda tarqalgan turlar populatsiyalari to'g'risida yagona xulosaga kelishimiz mumkin bo'ladi.

Biz quyida Erebidae kapalaklarning sistematikasi va morfologiyasi haqida ma'lumotlarni taqdim etamiz:

#### Erebidae oilasi

##### **Dysgoniya Hubner, 1823 avlodi**

1. *Dysgonia algira* Linnaeus, 1767
2. *Dysognia rogenhoferi* Bohatsch, 1880
3. *Dysognia torrida* Guenee, 1852

##### **Grammodes Guenee, 1852 avlodi**

4. *Grammodes stolidi* Fabricius, 1775

#### Arctiinae kenja oilasi

##### **Phragmatobia Stephens, 1828 avlodi**

5. *Phragmatobiya fuliginosa* Linnaeus, 1758
6. *Phragmatobia fuliginosa paghmani* Lenek, 1966
7. *Utetheisa pulchella* Linnaeus, 1758

#### Lymantriinae kenja oilasi

##### **Euproctis Hübner, 1819 avlodi**

8. *Euproctis chrysorrhoea* Linneus, 1758
9. *Euproctis kargalika* Moore, 1878

№	Tur nomi	Joy nomi	Koordinata	Dengiz sathidan balandlik/ metr
1	<i>Dysgonia algira</i>	Vodil-1	40°09'56"N, 71°43'24"E	972
2	<i>Dysognia rogenhoferi</i>	Vodil-2	40°09'52"N, 71°43'43"E	946
3	<i>Dysognia torrida</i>	Vodil-3	40°10'20"N, 71°43'32"E	936
4	<i>Grammodes stolidi</i>	Oqbilol	40°18'44"N, 71°40'23"E	663
5	<i>Phragmatobiya fuliginosa</i>	Arsif	40°25'15"N, 71°56'58"E	582
6	<i>Phragmatobia fuliginosa paghmani</i>	Vodil-1	40°09'56"N, 71°43'24"E	972
7	<i>Utetheisa pulchella</i>	Vodil-1	40°09'56"N, 71°43'24"E	972
8	<i>Euproctis chrysorrhoea</i>	Arsif	40°25'15"N, 71°56'58"E	582
9	<i>Euproctis kargalika</i>	Oqbilol	40°18'44"N, 71°40'23"E	663

Xulosa qilib aytganda, Farg'ona hududi o'zining faunistik va floristik xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Hududda lepidopterlar faunasi tur tarkibini aniqlash kelgusida mamlakatimizning to'liq lepidofaunistik tur genofondini yana ham shakllantirishda amaliy ahamiyatga ega bo'ladi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mustafakulov X. (1992). Основные вредители в агроценозах важнейших сельскохозяйственных культур Ферганской долины и управление их численностью энтомофагами : Avtoref.diss. ...kand.biol.nauk.-Baku, 21 c.
2. Синёв С.Ю. (2019). Каталог чешуекрылых (Lepidoptera) России. Издание 2-е. Санкт-Петербург: Зоологический институт РАН 448 с.
3. Махов И. А., Князев С. А., Матов А. Ю. Новые находки совкообразных чешуекрылых (Lepidoptera: Noctuoidea) в Байкальском регионе // Энтомологическое обозрение. XCVII. 2. Санкт-Петербург, 2018. С. 238–257.
4. Matov A.Yu. 2008. Lymantriidae oilasi // Sinev S.Yu. (ed.) Rossiyaning Lepidoptera (Lepidoptera) katalogi. Sankt-Peterburg - Moskva: KMK. 237–239, 341-betlar.
5. Xo'jayev Sh. T. (2014) . O'simliklarni zararkunandalardan uyg'unlashgan himoya qilish, hamda agrotoksikologiya asoslari. -Toshkent, - 540 b.
6. Kimber, Ian. "72.034 BF2054 Qip-xashakli Utetheisa pulchella (Linnaeus, 1758)". UKMoths. 2019-yil 24-avgustda olindi.
7. Stark, V. N. 1930: (Bark beetles of the forests at Chibiny, Lapland). – Zashita Rastenij 7: 19–28.